

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№9

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
sentyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr,
223 sahifa, sentyabr, 2025-yil.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Olmazor tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari va boshqaruv tizimini tahlil qilish	12
Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li	
Transport va logistika sohalarida sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	19
Usmonov Abbos Valijon o'g'li	
Using matrix analysis methods in marketing strategy in manufacturing enterprises	23
Sheraliev Axror Sodiqovich	
Yer osti konlari suvlari haydash tizimida ejektorli nasoslarni qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qilish	30
Xatamova Dilshoda Narmuratovna, Yuldasheva Mohinur Abduxakim qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kreditlash amaliyotining me'yoriy jihatlari va huquqiy asoslari	37
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich	
Eksport salohiyatini boshqarishda ishlab chiqarish faoliyatini baholash metodologiyasi	42
Qodirov Humoyun Tolibjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish korxonalarining raqamli iqtisodiyotga o'tishida xodimlarning mehnat munosabatlari	46
Kurbonova Raxima Jamshedovna	
Transport tizimining Markaziy Osiyo mamlakalarining milliy iqtisodiy o'sishga ta'sirini hozirgi holati	49
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini boshqarishda risklarni samarali kamaytirish usullari va innovatsion yondashuvlar	54
Marufhanov Davron Xasanovich	
Интеграция ESG-факторов в страховой сектор: возможности, барьеры и развитие рынка	58
Юсуфов Асфандиёр Элдор угли	
Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini samarali moliyalashtirish yo'nalishlari	63
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida daromadlar va xarajatlarni shakllantirish konsepsiyasi	67
Kurbanov Jaloladdin Yuldashbayevich	
“Intellectual mulk”, “Intellectual kapital”, “Nomoddiy aktiv” tushunchalari o'rtasidagi munosabat hamda ulardagi o'zaro bog'liqlik	73
N.D.Maxmudova	
Temir yo'l vokzallarida qo'shimcha xizmatlar rivojlanishi: iqtisodiy samaradorlik va moliyaviy barqarorlik omili	77
Iskandarov Kudrat Shuxratovich	
Iqtisodiyotning agrar sektori salohiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari	83
Bekmirzayev Mirzoxid Adashaliyevich	
Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida yashirin iqtisodiyotni fiskal vositalar bilan tartibga solish strategiyasi	87
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirishdagi muammolar	91
Qosimova Lola Sultanovna	
Mashinasozlik sanoati tarmog'ini rivojlantirishda yashil texnologiyalarni tadbiq etish usullari va yo'llari	96
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi qiyinchiliklar va imkoniyatlar	100
Rajabov Alibek Xushnadbekovich	



Ways to enhance financial transparency in utility service organizations through the digitalization of internal audit mechanisms.....	106
Primova Shakhnoza Komiljonovna	
Temir oksidli pigmentlarning ishlab chiqarish manbalari va jahon bozorida rivojlanish tendensiyalari	110
Askarova Nilufar Musurmanovna, Axmedova Nigora Erkin qizi	
Potential GDP Estimation and Output Gaps in Emerging Economies: A Comparative Review	120
Mukhammedova Azizakhon Ikromjon kizi	
Tijorat banklari likvidligiga indikativ foizlarning ta'sirini baholash.....	124
Tursunpo'latov Sohibnazar Kasimjon o'g'li	
Respublikamizda yetishtirilayotgan jun xomashyosining miqdori va texnologik xususiyatlari tahlili.....	131
Ismoyilov I.B., Qayumov J.A., Ismoyilov F.B., Qo'ldoshev E.I.	
Mahalla instituti asosida kambag'allikni qisqartirishda targetlash mexanizmlarining samaradorligi	137
Baratov J.N.	
Tijorat banklarida aktivlar boshqaruvini tashkil etish mexanizmlari	144
To'ychiyev Otabek Shamshiyevich	
Оптимизация жилищной инфраструктуры с учетом инсоляции и урбанизации как фактор региональной экономики.....	150
Далиев Ахтам Шарафутдинович	
Harbiy ta'lim muassasalarida mashg'ulotlarni tashkil etishda intellektual o'qitish tizimlarining roli.....	154
Maxamadov Rustam Xabibullayevich, Djamatov Mustafa Xatamovich	
Valyuta operatsiyalarini amalga oshirish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	160
Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li	
Qurilish sanoati korxonalarida innovatsiyalarni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari	169
Yuldasheva Kamola Miraliyevna	
Jismoniy shaxslardan undiriladigan "daromad" solig'ining iqtisodiy tahlili	173
Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi	
Hududlarda inson salohiyatini takomillashtirish yo'llari.....	180
Tojiyeva Muhayyo Valiyevna	
Banklar reytingini prognoz qilishning ekonometrik tahlili	188
Karabev Nodir Abduhamidovich	
Raqamli iqtisodiyot rivojida yangi bank xizmat turlarini rivojlantirish istiqbollari	201
Norov Akmal Ruzimamatovich, Norova Nozima Nabiyevna	
O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va o'rta muddatli soliq-budjet siyosatining ahamiyati.....	207
Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich	
Tijorat banklarining resurs bazasini mustahkamlash muammolari va ularni raqamli texnologiyalar orqali bartaraf etish yo'llari.....	211
Mirpulatova Luiza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini tahlili.....	216
Xatamov Nurbek Ochildiyevich	



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-IJTIMOYIY OQIBATLARI TAHLILI

Xatamov Nurbek Ochildiyevich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni joriy etish va uni rivojlantirish jarayonlarining iqtisodiy hamda ijtimoiy oqibatlari tahlil qilingan. Davlat tomonidan qabul qilingan raqamlashtirish strategiyalari, elektron hukumat, raqamli xizmatlar va biznes jarayonlarni avtomatlashtirish bo'yicha tashabbuslar asosida yuzaga kelayotgan o'zgarishlar ko'rib chiqilgan.

Maqolada raqamli texnologiyalar qo'llanilishi natijasida mehnat bozorida transformatsiyalar, ish o'rinlari dinamikasi, aholi bandligi va ta'lim tizimiga ta'siri, shuningdek, biznes muhitidagi samaradorlik ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar tahlil qilindi. Maqolada raqamli iqtisodiyotning ijobiy va salohiyatli salbiy oqibatlari muvozanatli yondashuv asosida ko'rsatib o'tilgan.

Shuningdek, maqolada raqamli notenglik, raqamli bilimlar darajasi, mintaqaviy farqlar va axborot xavfsizligi bilan bog'liq muammolarga ham alohida e'tibor qaratilgan. Muallif tomonidan raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda barqaror o'sishni ta'minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, ijtimoiy oqibatlar, iqtisodiy tahlil, raqamlashtirish, raqamli transformatsiya, O'zbekiston, mehnat bozori, raqamli notenglik.

Abstract: This article analyzes the economic and social consequences of the processes of introducing and developing the digital economy in the Republic of Uzbekistan. The changes taking place on the basis of the digitization strategies adopted by the state, initiatives for e-government, digital services and automation of business processes are considered.

The article analyzes the transformations in the labor market, job dynamics, the impact on the employment and education system, as well as changes in efficiency indicators in the business environment as a result of the use of digital technologies. The article shows the positive and potentially negative consequences of the digital economy based on a balanced approach.

The article also pays special attention to the problems associated with digital inequality, the level of digital knowledge, regional differences and information security. The author has developed proposals and recommendations aimed at ensuring sustainable growth in the development of the digital economy.

Keywords: digital economy, social consequences, economic analysis, digitization, digital transformation, Uzbekistan, labor market, digital inequality.

Аннотация: В статье анализируются экономические и социальные последствия процессов внедрения и развития цифровой экономики в Республике Узбекистан. Рассматриваются изменения, происходящие на основе принятых государством стратегий цифровизации, инициатив по электронному правительству, цифровым услугам и автоматизации бизнес-процессов.

В статье анализируются трансформации на рынке труда, динамика рабочих мест, влияние на систему занятости и образования, а также изменение показателей эффективности в бизнес-среде в результате использования цифровых технологий. В статье на основе сбалансированного подхода показаны позитивные и потенциально негативные последствия цифровой экономики.

В статье также уделяется особое внимание проблемам, связанным с цифровым неравенством, уровнем цифровых знаний, региональными различиями и информационной безопасностью. Автором разработаны предложения и рекомендации, направленные на обеспечение устойчивого роста в процессе развития цифровой экономики.

Ключевые слова: цифровая экономика, социальные последствия, экономический анализ, цифровизация, цифровая трансформация, Узбекистан, рынок труда, цифровое неравенство.



KIRISH

XXI asrning ikkinchi o'n yilligida turli iqtisodiy adabiyotlarda mamlakatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga erishish hamda makroiqtisodiy muvozanatini ta'minlashning muhim jihati raqamli iqtisodiyot tizimiga o'tish deb qayd etilmoqda. Shunday ekan, iqtisodiy taraqqiyotning bugungi bosqichida O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, tizimga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish, yangi texnologiyalarni joriy etish, kadrlarni tayyorlash va boshqa bir qancha muhim yo'nalishlarda keng qamrovli ishlarni bajarish, mamlakatimizda amalga oshirilishi lozim bo'lgan muhim ishlar doirasidagi birlamchi vazifalar qatoriga olib chiqadi. Ta'kidlash joizki, keyingi yillarda O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, unda mazkur tizimni taraqqiy ettirishga doir ko'plab qilinishi lozim bo'lgan ishlar belgilab berildi.¹ Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kript-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3832-sonli², O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabdagi "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-6079-sonli³ qarorlariga binoan respublikada raqamli iqtisodiyotni faol rivojlantirish, yaqin istiqbolda barcha tarmoq va sohalarga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilganligini ko'rsatib o'tish mumkin. O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish vazifasi milliy statistika doirasida ham bir qancha muhim ishlarning bajarilishini, xususan, milliy iqtisodiyot tarmoq va sohasini raqamlashtirishga oid indikatorlar tizimi ishlab chiqilishi, mazkur tizim uchun ma'lumotlar bazasi shakllantirilishi, maxsus kuzatuvlar, so'rovnomalar, hisobot shakllari ishlab chiqilishini taqozo etadi.

Jahon miqyosida raqamli texnologiyalarning jadal sur'atlarda rivojlanishi barcha sohalarda yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri, balki ijtimoiy barqarorlik va samarali boshqaruvning muhim omili sifatida ham namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilab olingan. Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi, elektron hukumat tizimini rivojlantirish, raqamli xizmatlar platformalarini yaratish kabi chora-tadbirlar iqtisodiy tizimni tubdan o'zgartirishga xizmat qilmoqda.

Raqamlashtirish jarayoni nafaqat iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish, balki mehnat bozori, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya kabi ijtimoiy sohalarga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan bog'liq yangi muammolar – raqamli notenglik, axborot xavfsizligi, raqamli savodxonlik darajasining yetarli emasligi kabi masalalar ham yuzaga kelmoqda.

Ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni joriy etish va rivojlantirish jarayonlarining iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini, ularning ijobiy va salbiy jihatlari, shuningdek, bu sohadagi amaliy yutuqlar va mavjud muammolar tahlil etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — raqamli iqtisodiyotning mamlakat taraqqiyotiga ko'rsatayotgan ta'sirini kompleks baholash va samaradorlikni oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Bugungi kunda innovatsion texnologiyalar barcha sohalarda, jumladan, televideniye, ta'lim, bank ishi va davlat boshqaruvida keng joriy etilmoqda. Xususan, raqamli televideniye texnologiyalari tasvir sifatining yuqoriligi, signallarni uzatish va qabul qilishdagi samaradorligi bilan ajralib turadi. O'zbekiston Respublikasi rahbariyati tashabbusi bilan raqamli televideniye bosqichma-bosqich o'tish bo'yicha maxsus konsepsiya va dasturlar qabul qilindi.

Axborot tizimlari va ma'lumotlar bazalarining joriy etilishi sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy himoya, turizm va davlat xizmatlari sohasida faol ravishda amalga oshirilmoqda. Hozirgi kunda "aqlli" va "xavfsiz" shaharlar konsepsiyasi doirasida hududiy loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Ta'lim sohasida esa tarmoqli axborot texnologiyalari asosida integratsiyalashgan o'qitish tizimlari shakllanmoqda. Masofaviy ta'lim modellari orqali talabalar elektron o'quv qo'llanmalariga istalgan joydan kirish imkoniyatiga ega bo'lib, o'qituvchi bilan real vaqtda aloqa o'rnatishi, o'z vazifalarini yuborishi va qo'shimcha resurslardan foydalanishi mumkin. Bu esa ta'lim sifatini oshirish va yangi bilimlarni o'zlashtirishda innovatsion yondashuvni ta'minlaydi.

Tijorat banklari ham raqamli texnologiyalar orqali o'z faoliyatlarini modernizatsiya qilmoqda. AKT negizida ishlab chiqilayotgan innovatsion dasturlar bank operatsiyalarini avtomatlashtirish, mijozlar bilan munosabatlarni yaxshilash va xodimlar faoliyatini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

1 https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/32_Siddikov.pdf

2 <https://lex.uz/docs/-3806053>

3 <http://lex.uz/docs/-5030957>

Zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimlar orqali mijoz murojaatlari turli kanallardan (telefon, onlayn chat, veb-sayt orqali va h.k.) qabul qilinib, yagona tizimda qayta ishlanmoqda.

Jamiyat hayotidagi raqamlashtirish jarayonlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini belgilaydi. "Raqamli iqtisodiyot" tushunchasi bugungi kunda to'rtinchi sanoat inqilobi sharoitida iqtisodiy o'sish darajasini belgilaydigan asosiy ko'rsatkichlardan biriga aylangan. Bu jarayonda intellektual faoliyatni avtomatlashtirish, raqamli yechimlar asosida qaror qabul qilish va raqobatbardoshlikni ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Post-sanoat davrida axborot resurslari va ma'lumotlar almashinuvi ijtimoiy jarayonlarning asosiy harakatlantiruvchi omillaridan biriga aylandi. Butunjahon Internet tarmog'i orqali axborot uzatish imkoniyatlari insoniyatning bilim, madaniyat va iqtisodiy sohalardagi cheklovlarini bartaraf etib, yangi imkoniyatlarni yaratadi. Ayniqsa, ijtimoiy munosabatlar va madaniy qadriyatlar shakllanishida virtual muhitning ta'siri ortib bormoqda.

Axborot oqimlarining shiddat bilan tarqalishi ijtimoiy yangilanish jarayonlarini tezlashtirib, shaxsiy va jamoaviy hayotda yangi paradigmalarni shakllantirmoqda. "Axborotlashtirish" tushunchasi kundan-kunga yanada chuqurlashib, raqamli texnologiyalar inson hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Yangi avlod esa aynan raqamli muhitda voyaga yetayotgan bo'lib, ularning dunyoqarashi, bilim olish usuli va hayot tarzi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga to'liq bog'liq holga kelmoqda.

Shunday ekan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va makroiqtisodiy muvozanatini baholash ko'rsatkichlari tizimini shakllantirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblangan raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga oid milliy indikatorlar majmuini ishlab chiqish milliy statistika tizimiga oid muhim masalalar ichida dolzarb ahamiyat kasb etadi va tadqiqot ishimiz yo'nalishini tanlab olishimizga asos bo'ldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Raqamli iqtisodiyot masalasi xalqaro va milliy tadqiqotchilar e'tiborida turibdi. Xususan, E. Brinolfsson va E. Makafi raqamli texnologiyalar ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va mehnat bozoridagi o'zgarishlarga kuchli ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, raqamli iqtisodiyot yuqori samaradorlik va iqtisodiy o'sishga olib kelishi bilan birga, ish o'rinlari qisqarishi, raqamli notenglik va ma'lum ko'nikmalarga bo'lgan talabning ortishiga ham sabab bo'ladi.

R.Zayniddinov va hamkasblari[3] ilmiy ishida O'zbekiston bo'yicha raqamli iqtisodiyot va iqtisodiy rivojlanish o'rtasidagi bog'liqlikni ko'p omilli vaqt qatori modeli yordamida baholaydi. ACM nashridagi tadqiqot IDI/IDAR indikatorlari bilan YaIM (aholi jon boshiga) o'rtasida barqaror ijobiy korrelyatsiya va uzoq muddatli integratsiyani ko'rsatadi; Granger-sababiylik natijalari raqamlashtirishning o'sishga yo'naltiruvchi kanal sifatida ishlashini tasdiqlaydi.

S.Sharipov[4] maqolasida 2010-yildan keyingi O'zbekiston ma'lumotlari asosida raqamlashtirishning o'sishga ta'sirini ko'p omilli regressiya bilan baholaydi. Axborot xizmatlari hajmi, dasturiy ta'minot ishlab chiqarish va innovatsion xarajatlar kabi ko'rsatkichlar o'sishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi; multikollinearlik va statsionarlik testlari bilan natijalarning barqarorligi tekshiriladi. Muallif sektoral darajada (sanoat, xizmatlar) raqamli loyihalarni kengaytirish hamda inson kapitaliga sarmoya qilish ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichlarini yaxshilashini ta'kidlaydi.

K.Kurpayanidi[5] tadqiqotida O'zbekistonda e-kommersiya va raqamli transformatsiyaning institutsional asoslarini tahlil qilib, biznes muhitidagi tartibotlar, to'lov infratuzilmasi va ma'lumotlar boshqaruvi (data governance)ning o'sishga va bandlikka bilvosita ta'sir kanallarini ochib beradi. Maqola raqamli platformalar orqali KOB subyektlari uchun kirish to'siqlari pasayishi, tranzaksiya xarajatlari qisqarishi va ichki bozor integratsiyasi kuchayishini nazariy-empirik dalillar bilan asoslaydi; bu esa ijtimoiy inklyuziyani kengaytiradi.

G.Ogunmola[6] o'z ishida O'zbekistonda raqamli transformatsiya, iqtisodiy o'sish va barqarorlik (sustainability) o'rtasidagi munosabatlarni korrelyatsiya va regressiya usullari hamda mavzuiy tahlil bilan o'rganadi. Natijalar raqamli infratuzilma va xizmatlarning kengayishi ishlab chiqarish samaradorligi, yashil texnologiyalarni joriy etish va ijtimoiy xizmatlarga kirishni yaxshilashini ko'rsatadi. Shuningdek, raqamli tafovut va malaka nomuvofiqligi kabi xavflarni boshqarish zarurligi ta'kidlanadi.

F.Saidmurodova[7] maqolasida raqamli to'lov tizimlarining moliyaviy inklyuziyaga va shu orqali ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka ta'sirini, O'zbekiston tajribasiga tayangan holda, taqqoslama yondashuvda tahlil qiladi. UPI/M-Pesa/Alipay kabi modellar bilan qiyoslash orqali mobil bank va kontaktless to'lovlar mikromulkdorlar va past daromad guruhlarining tranzaksiya xarajatlarni tushirishi, norasmiy iqtisodiyotdan rasmiy moliya tizimiga o'tishni tezlatishi asoslanadi.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida keltirilgan adabiyotlar raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy va ijtimoiy sohalardagi ta'sirini har tomonlama yoritadi. Biroq, mavjud manbalarda ijtimoiy oqibatlarni chuqur o'rganishga yetarlicha e'tibor berilmagan. Shu bois, O'zbekiston sharoitida mazkur jarayonning ijtimoiy-madaniy, mintaqaviy va inson kapitaliga ta'sirini tahlil qilish bugungi kun ilmiy izlanishlari uchun dolzarb hisoblanadi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlanishining asosiy yo'nalishlari. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining barqarorligini ta'minlash, jahon tajribasiga suyangan holda milliy iqtisodiyotni jadal sur'atlarda raqamlashtirish uchun quyidagi ishlarni bajarish lozimligi ko'rsatib o'tilgan:

- raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy bazasini shakllantirish;
- milliy iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarini modernizatsiyalashda imkon qadar eng so'nggi raqamli texnologiyalarni joriy etish;
- eng so'nggi raqamli texnologiyalarga asoslangan kommunikatsion vositalar, mashina va uskunalarni sotib olish, o'rnatish va mahalliy kadrlarning ularda ishlash malakalarini oshirish;
- maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, to oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimigacha raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan kadrlar siyosatini ishlab chiqish va yuritish. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqamli O'zbekiston–2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-6079-sonli⁴ qaror doirasida 2020—2022-yillarda hududlarni raqamlashtirish dasturlari tasdiqlandi. Unga asosan aholi punktlarining internetga ulanish darajasini 78 foizdan 95 foizgacha oshirish, shu jumladan, buning hisobiga 2,5 million keng polosali ulanish portlarini ko'paytirish, 20 ming kilometr optik tolali aloqa liniyalarini o'tkazish va uyali aloqa tarmoqlarini rivojlantirish, 400 dan ortiq axborot tizimlarini, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalariga elektron xizmatlar va dasturiy ta'minotlarni joriy etish, 587 ming kishini kompyuter dasturlash asoslari bo'yicha o'qitishni tashkil etish, shuningdek "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 500 ming yoshlarni jalb qilish, ishlab chiqarish va iqtisodiyotning real sektori korxonalarida logistika, boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarini joriy etish, davlat organlari va tashkilotlari xodimlarining raqamli savodxonligi va malakasini oshirish, ularni axborot texnologiyalariga o'rgatish va axborot xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, mintaqalardagi tegishli Oliy o'quv yurtlari ma'muriy-hududiy birliklarda hokimiyat va davlat idoralarining 12 ming xodimini axborot texnologiyalari bo'yicha o'qitish uchun mas'ul etib tayinlandi. Aytish joizki, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga doir asosiy yo'nalishlar orasida milliy statistika tizimiga oid quyidagi muhim masalalarni qayd etish mumkin: statistika tizimiga raqamli texnologiyalarni joriy etish; ma'lumotlarni to'plashdan boshlab, chop etishga doir jarayonlarda samaradorlikni oshirish uchun yangi, eng so'ngi dasturiy ta'minotlarni qo'llash; raqamli iqtisodiyotga oid ko'rsatkichlarni ishlab chiqish va shakllantirish hamda ularni davlat boshqaruv apparatiga, tegishli vazirlik va idoralarga samarali qarorlar chiqarishlari uchun yetkazib berish; raqamli iqtisodiyotga oid kurslarni ishlab chiqish va o'qitish asosida kadrlar malakasini oshirish va boshqalar.

"Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4796-sonli⁵ qarorda yuqorida ko'rsatib o'tilgan asosiy masalalar bilan bir qatorda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish ko'rsatkichlarini ishlab chiqish vazifasi ham belgilab berilgan. Qayd etish joizki, aynan raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga oid milliy indikatorlar majmuasining yaratilishi uchun me'yoriy-huquqiy asos mavjudligi ham ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqishga poydevor bo'ldi.

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga oid milliy ko'rsatkichlar majmuini ishlab chiqishda to'rtta yirik blokdan iborat indikatorlar tizimi shakllantirildi. Bular: Mamlakatning xalqaro reytingdagi o'rniga oid ko'rsatkichlar; hududlarda raqamli iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari; biznes va sohalarini raqamlashtirish ko'rsatkichlari; o'z chegarasi doirasida bir nechta indikatorlar tizimini qamrab olgan – AKT sohasi taraqqiyotiga oid ko'rsatkichlar majmui; raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi malakasi va kadrlar salohiyati hamda ijtimoiy soha va ommaviy axborot vositalari tizimini raqamlashtirish ko'rsatkichlari raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga oid milliy ko'rsatkichlardir. Mamlakatning xalqaro reytingdagi o'rniga oid ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishda I-DESI, IDI, EGD, EPART, GCI, GII, SGI, WDCI va boshqa xalqaro indekslar majmuidan foydalanildi. Biznesdagi raqamli texnologiyalar indikatorlari majmuini ishlab chiqishda tizimga oid ko'rsatkichlar bilan bir qatorda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tashkilotlarda CRM, ERP, SCM tizimlaridan foydalanish darajasini ifoda etuvchi ko'rsatkichlar ham kiritildi. Shuningdek, hududlarda raqamli iqtisodiyot rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda qishloq yoki shahar joylariga xos xususiyatlar, tarmoq yoki sohalar taraqqiyotiga oid shu bilan birga raqamlashtirish jarayoniga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillar ham hisobga olindi.

AKT sohasi taraqqiyotiga xos ko'rsatkichlar majmuiga - AKT sektori faoliyati, AKT sohasidagi tadqiqotlar va ishlanmalar, telekommunikatsiyalar, elektron hukumat xizmatlaridan foydalanish, axborot xavfsizligi, raqamli texnologiyalar qo'llanilishiga oid indikatorlar tizimlari mujassamlashtirildi. Shuningdek, raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga oid milliy ko'rsatkichlar majmuining beshinchi blokiga – raqamli iqtisodiyot bo'yicha

4 <https://lex.uz/docs/-5030957>

5 <https://lex.uz/ru/docs/-4926736>

kadrlar salohiyati, ijtimoiy sohani raqamlashtirish va raqamli reallikdagi aholiga oid indikatorlar ko'rsatkichlari hamda ommaviy axborot vositalari (OAV) va kontent tarkibi kiritildi. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga oid milliy ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqishda induktiv-deduktiv (xususiylikdan umumiylikka, umumiylikdan tizimli shaklga o'tilishi va aksincha), sabab va natija munosabatlari, tizimli yondashuv, strategik maqsad, indikativ rejalashtirish, optimal tanlov, majmuaviy baholash metodlari hamda tarkibiy-funksional modelga asoslangan metodologik yondashuv qo'llanildi.

Mutaxassislarning fikricha, XXI asrning 30-yillariga kelib, insoniyatning qariyb 15-20 foizi axborotlar jamiyatida yashaydi va unga ta'sir ko'rsatadi, 60- 70 foiz aholi esa industrial jamiyat ta'sirida qolmoqda. Insoniyat jamiyatining bunday shakllanishi global raqamli bo'shliq bilan ifodalanmoqda. Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot, keng ma'noda, yangi axborotni yaratish, ulardan foydalanish, raqamli texnologiyalarni va raqamli mahsulotlarni, telekommunikatsiya xizmatlarini, elektron biznesni, elektron tijoratni, elektron bozorlarni, masofadan turib bitim tuzish mexanizmlarini, masofadan turib xizmat ko'rsatishni, masofaviy ta'limni va boshqa bir qator komponentlarni o'z ichiga olgan xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni tizimli tashkil etgan tuzilmadir. Yuqorida ko'rsatilganidek, raqamli iqtisodiyot elektron biznes va savdo bilan bog'liq raqamli texnologiyalarni qo'llash asosida iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish jarayonlari va usullari bo'lib, kiber muhitda raqamli tovarlar va xizmatlarni amalga oshirishning qulay imkoniyatini yaratadi. Boshqacha aytganda, bu elektron to'lov vositalari, kriptovalyuta va raqamli valyutaning imkoniyatlaridan foydalangan holda axborotni ijtimoiy tarmoq orqali elektron vositalardan foydalangan holda uzatish, almashish va saqlash bitimlari tizimidir. Ko'pgina xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar raqamli iqtisodiyotni axborot iqtisodiyoti, bilimlar iqtisodiyoti, ijodiy iqtisodiyot, internet iqtisodiyoti, tarmoq iqtisodiyoti, elektron iqtisodiyot, yangi iqtisodiyot va h.k. kabi tushunchalar bilan ifodalaydi (1-rasm).⁶



1-rasm. Postindustrial iqtisodiyotning yangi ko'rinishlari.

Bizning fikrimizcha, "raqamli iqtisodiyot" tushunchasi oddiy ma'lumotlarni raqamlashtirish va turli xil iqtisodiy munosabatlarni avtomatlashtirish jarayonlarini an'anaviy tushunishdan ancha kengroqdir. Bu zamonaviy axborot va smart-texnologiyalarning xilma-xilligini, shuningdek, yirik ma'lumotlar Internet iqtisodiyot Tarmoq iqtisodiyoti Bilimlar iqtisodiyoti Bilimlar iqtisodiyoti Elektron iqtisodiyot Axborotlar iqtisodiyoti bazalari, simsiz tarmoqlar, turli xil mobil qurilmalar va gadgetlarni, shuningdek, ijtimoiy media platformalarini yaratishga imkon beruvchi yangi turdagi ijtimoiy raqamli platformalarni jalb qilishning innovatsion usulidir. Raqamli iqtisodiyot doirasida ushbu texnologiyalarning barchasi alohida va integrasion rejimlarda muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha iqtisodiy tarmoq va sohalariga qo'llanilib, ularda yangi bilim hamda ko'nikmalarni shakllantirish, tegishli strategik qarorlar qabul qilish jarayonidir. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotning barcha iqtisodiyot sohalarida amalda qo'llanishi yangidan-yangi ilmiy tadqiqotlar va zamonaviy texnologiyalar yaratishni taqozo etib, ular uchun tarmoq va sohalar qulay raqamli makonlarini yaratadi. Jahon banki tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, raqamli iqtisodiyot bu raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llashga asoslangan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy munosabatlar tizimidir. Raqamli iqtisodiyotning asosiy xususiyatlari quyidagilar bo'lib hisoblanadi: – maxsus raqamli platformalar va ekotizimlar yaratish orqali iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish; – shaxsiy xizmat modellarini qo'llash; – ijtimoiy tarmoqda iqtisodiyotda faoliyat yuritayotgan ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning bevosita o'zaro hamkorlik aloqalariga masofaviy qulay muhitni yaratish. So'nggi to'rt yil ichida O'zbekistonda axborot texnologiyalarini rivojlantirish borasida katta qadam tashlandi, bu iqtisodiyotning ko'plab sohalarida raqamlashtirish jarayonlarini

6 file:///C:/Users/n.xatanov/Downloads/Rakamli_iktisodiyotni_rivojlantirish_omillari_nazari.pdf



kengaytirish va uning raqamli deb ataladigan ulushini oshirishga yordam berdi. Raqamli iqtisodiyotning tarkibiy qismlariga elektron tijorat, “Elektron hukumat” tizimi, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida, xizmat ko’rsatish sohasida «aqli» (smart) texnologiyalarni joriy etish, “Aqli shahar”, “Xavfsiz shahar”ni yaratish, shuningdek, “Buyumlar Interneti”dan keng foydalanish va boshqalar kiradi. Raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)ning rivojlanish darajasi bilan bevosita bog’liq bo’lgan holda, odatda, turli ko’rsatkichlar bilan baholanadi. Ushbu ko’rsatkichlar quyidagilardan iborat: raqamli iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi, AKT sanoatiga kiritilgan investitsiyalar hajmi, internet tezligi, uning mamlakat hududini qamrab olishi va aholi foydalanishi uchun qulayligi, elektron tijoratning rivojlanish darajasi, “Elektron hukumat” tizimidagi davlat xizmatlari ulushi, AKT sohasidagi mutaxassislar bilan tashkilotlarning ta’minlanishi va boshqalar. Bundan tashqari, mamlakatda axborot texnologiyalarining rivojlanish darajasini baholaydigan xalqaro reytinglardagi ko’rsatkichlar muhim ahamiyatga ega. 1-rasmda O’zbekiston Respublikasida 2016-yildan 2021-yilgacha iqtisodiyotda faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar hamda axborot va aloqa sohasida faoliyat ko’rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar sonining o’sish tendensiyasi keltirilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O’zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish mamlakatning iqtisodiy o’sishi va ijtimoiy taraqqiyotida muhim omil sifatida namoyon bo’lmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari sanoat, qishloq xo’jaligi, moliya, ta’lim, sog’liqni saqlash va davlat boshqaruvi sohasida samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa mamlakatda investitsion muhitni yaxshilash, yangi ish o’rinlarini yaratish va kichik hamda o’rta biznesni qo’llab-quvvatlash imkonini berdi.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, aholi turmush darajasini oshirish va raqamli tenglikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Masofaviy ta’lim, onlayn tibbiy xizmatlar, elektron tijorat kabi sohalardagi rivojlanish aholiga yangi imkoniyatlarni taqdim etmoqda.

Biroq, raqamli iqtisodiyotni joriy etishda kibernetika xavfsizlik, raqamli ta’lim yetishmasligi, infratuzilma muammolari va raqamli ajralish (digital divide) kabi murakkab masalalar ham mavjud. Ushbu muammolarni hal qilish maqsadida davlat tomonidan tizimli islohotlar va dasturlar amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O’zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshirmoqda, balki ijtimoiy taraqqiyot va aholi farovonligini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu jarayonda barqaror va inkluziv rivojlanishni ta’minlash ustuvor vazifa bo’lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “2020–2023 yillarda raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PF–6079-sonli farmoni.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi. (2023). O’zbekistonda raqamli iqtisodiyot: tahlil va istiqbollari. Toshkent.
3. Zayniddinov, R., Irgasheva, G., Makhmudov, N., Uluyol, B., & Rozimov, B. (2023). An Empirical Investigation of the Relationship Between Digital Economy and Economic Development in Uzbekistan. In ICFNDS ’23 (ACM).
4. Sharipov, S. (2024). The Role of Digitalization in Economic Growth: Experience of Uzbekistan. Asian Journal of Economics, Business and Management.
5. Kurpayanidi, K. I. (2025). Digital Transformation and Institutional Framework of E-Commerce in Uzbekistan. International Journal of Business, Law and Education.
6. Ogunmola, G. A. (2024). Exploring the Impact of Digital Transformation on Economic Sustainability in Uzbekistan: Opportunities and Implications. OASK Publishers.
7. Saidmurodova, F. (2025). The Role of Digital Payment Systems in Promoting Financial Inclusion: Uzbekistan’s Experience and International Perspectives. SSRN Working Paper No. 5297328.
8. Karimov, I. (2021). Raqamli iqtisodiyot va uning taraqqiyot bosqichlari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
9. Ahmedov, Sh. (2022). Iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi va uning ijtimoiy ta’sirlari. – “Iqtisodiy fanlar” jurnali, №2, 34–40-betlar.
10. World Bank. (2022). Digital Uzbekistan: Accelerating Digital Transformation for Inclusive Growth. www.worldbank.org
11. UNCTAD. (2023). Digital Economy Report 2023: Cross-border data flows and development. Jeneva: BMT nashriyoti.
12. Schwab, K. (2020). The Fourth Industrial Revolution. World Economic Forum.
13. Davletov, B. (2023). Raqamli iqtisodiyotning institutsional asoslari. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy to’plami, №1.
14. O’zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo’mitasi. (2024). Raqamli infratuzilmaning rivojlanish dinamikasi bo’yicha statistik ma’lumotlar. www.stat.uz
15. OECD. (2022). Measuring the Digital Transformation: A Roadmap for the Future. Paris: OECD Publishing.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100